

## MUSTAQILLIK YILLARIDA OLIY TA'LIM TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng Xorazm viloyatida oliy ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar, erishilgan yutuqlar va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, viloyatdagi oliy ta'lim muassasalarining shakllanishi, rivojlanishi va modernizatsiyasi jarayonlari o'rganilgan. Tadqiqot natijasida mustaqillik yillarida Xorazm viloyatida oliy ta'lim tizimining sifat va miqdor ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilangani aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, islohotlar, modernizatsiya, universitet, institut, talabalar, professor-o'qituvchilar, Xorazm viloyati.

## ИЗМЕНЕНИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ЗА ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ (НА ПРИМЕРЕ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ)

**Аннотация:** В данной статье анализируются реформы, достигнутые успехи и тенденции развития высшего образования в Хорезмской области после обретения Республикой Узбекистан независимости. Также изучены процессы формирования, развития и модернизации высших учебных заведений области. Исследование показало, что за годы независимости в Хорезмской области значительно улучшились качественные и количественные показатели системы высшего образования.

**Ключевые слова:** высшее образование, реформы, модернизация, университет, институт, студенты, преподаватели, Хорезмская область.

## CHANGES IN THE SYSTEM OF HIGHER EDUCATION IN THE YEARS OF INDEPENDENCE (ON THE EXAMPLE OF THE KHOREZM REGION)

**Abstract:** This article analyzes the reforms, achievements and development trends carried out in the field of higher education in the Khorezm region after the independence of the Republic of Uzbekistan. The processes of formation, development and modernization of higher education institutions in the region are also studied. As a result of the study, it was found that during the years of independence, the quality and quantity indicators of the higher education system in the Khorezm region improved significantly.

**Keywords:** higher education, reforms, modernization, University, Institute, students, professors, Khorezm region.

**KIRISH**

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar natijasida oliy ta'lim muassasalari soni ko'paydi, yangi ta'lim yo'nalishlari ochildi, moddiy-texnik baza mustahkamlandi, professor-o'qituvchilar salohiyati oshdi. Xorazm viloyati oliy ta'lim tizimida ham sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Viloyatda yangi oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi, mavjudlari modernizatsiya qilindi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida viloyatda faqat bitta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 8 taga yetdi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi ham sezilarli darajada mustahkamlandi, zamonaviy o'quv-laboratoriya binolari, talabalar turar joylari, sport inshootlari barpo etildi. Professor-o'qituvchilar tarkibining sifat ko'rsatkichlari ham yaxshilandi. Mazkur maqolada Xorazm viloyatida mustaqillik yillarida oliy ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar, erishilgan yutuqlar va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan.

**METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI**

Mazkur tadqiqotda Xorazm viloyatida mustaqillik yillarida oliy ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlarni o'rganishda tarixiy-qiyosiy, tizimli tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tarixiy-qiyosiy usul orqali viloyatda oliy ta'lim tizimining rivojlanish bosqichlari, har bir davrning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Tizimli tahlil usuli yordamida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining turli jihatlari - ta'lim jarayoni, ilmiy-tadqiqot ishlari, moddiy-texnik baza, kadrlar

Mavzu doirasida O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, statistik ma'lumotlar, ilmiy adabiyotlar o'rganildi. Jumladan, B. Bobojonov [2], A. Sadullaev [3], M. Matniyozov [4] kabi olimlarning asarlari tahlil qilindi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Mustaqillik yillarida Xorazm viloyatida oliy ta'lim tizimi tub islohotlarni boshdan kechirdi. 1991-yilgacha viloyatda yagona oliy ta'lim muassasasi - Xorazm davlat pedagogika instituti faoliyat yuritgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 28-fevraldagi Farmoniga asosan mazkur institut Urganch davlat universitetiga aylantirildi. Bu o'zgarish viloyat oliy ta'lim tizimida yangi bosqichni boshlab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 19-iyuldagi Farmoniga ko'ra, Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali tashkil etildi. Filial tashkil etilgan dastlabki yillarda "Pediatriya" fakulteti ochildi va uning 2-3-bosqichlari Toshkent va Samarqand shaharlaridagi tibbiyot institutlarida tahsil olayotgan yoshlar hisobidan to'ldirildi. 1994-1995-o'quv yilida bo'limda o'qish istagini bildirib ariza bergan 870 abituriyentdan 110 nafari qabul qilindi va talabalarning umumiy soni 453 nafarga yetdi.

2005-yilda Respublika Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 130-sonli buyrug'i bilan Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali tashkil etildi. Filialda dastlabki yillarda Informatika va axborot texnologiyalari fakultetlari ochildi.

2007-yilda filialda 270 talaba tahsil oldi va ularga 3 ta kafedra, 7 ta o'quv laboratoriyalari xizmat qildi.

Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi ham yildan-yilga mustahkamlanib bordi. Urganch davlat universiteti tarkibida zamonaviy o'quv binolari, laboratoriyalar, sport majmualari, talabalar turar joylari barpo etildi. 2008-2009-o'quv yilida universitetda jami 7894 nafar talaba tahsil oldi. Shundan 5320 nafari kunduzgi, 2426 nafari sirtqi bo'limda, 148 nafari magistrantlar edi. O'quv dargohidagi 10 ta fakultet, 35 ta kafedra, maxsus sirtqi bo'limi faoliyat ko'rsatdi.

Professor-o'qituvchilar tarkibining sifat ko'rsatkichlari ham sezilarli darajada yaxshilandi. 2015/16-o'quv yilida universitetda 6950 talaba ta'lim oldi, 112 magistr, 8 doktorant ilmiy faoliyat olib bordi, 480 dan ortiq o'qituvchi, jumladan, 1 ta O'zbekiston FA akademigi, 21 fan doktorlari, 240 ga yaqin fan nomzodi va dotsent ishladi. Tashkil bo'lgandan to 2016-yilgacha 40 mingga yaqin mutaxassis tayyorlandi.

Xalqaro hamkorlik aloqalari ham kengayib bordi. TATU Urganch filiali o'qituvchi va talabalari respublika va xalqaro tadbirlarda munosib o'rinni egallab kelishdi. 2007-yil 28-oktyabrda bo'lib o'tgan dasturlash bo'yicha Jahon olimpiadasining chorak final saralash musobaqalarida filialning 3 ta jamoasi yaxshi ishtirok etib, yarim final bosqichiga yo'l oldi.

2014-2015-yildan Prezident qaroriga asosan, TATUda magistraturaning "Elektron hukumat" tizimi boshqaruvi hamda axborotlashtirish va kutubxonachilik yo'nalishlari ochildi va Urganch filialida tayyorgarlik ishlari boshlandi. Bu esa viloyatda axborot texnologiyalari sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash imkoniyatini yanada kengaytirdi.

Ta'lim sifatini oshirish maqsadida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etildi. Barcha oliy ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter texnikalari bilan jihozlandi, internet tarmog'iga ulandi. O'quv jarayoniga masofaviy ta'lim texnologiyalari tatbiq etila boshlandi. Bu esa pandemiya sharoitida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etdi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar Xorazm viloyati oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



**1-rasm. Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan OTMLar soni**

Ushbu grafik Xorazm viloyatidagi oliy ta'lim tashkilotlari sonining 2019/2020 o'quv yilidan 2023/2024-o'quv yiligacha bo'lgan dinamikasini ko'rsatadi. Grafik quyidagi asosiy tendensiyalarni aks ettiradi:

2019/2020-va 2020/2021-o'quv yillarida viloyatda 3 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan va bu ko'rsatkich o'zgarishsiz qolgan (o'sish 0%).

2021/2022-o'quv yilida oliy ta'lim muassasalari soni 6 taga yetgan, ya'ni avvalgi yilga nisbatan 100% o'sish kuzatilgan.

2022/2023-o'quv yilida yana 2 ta muassasa qo'shib, ularning umumiy soni 8 taga yetgan (+33.3% o'sish).

2023/2024-o'quv yilida oliy ta'lim muassasalari soni 8 ta darajasida saqlanib qolgan (o'sish 0%).

Grafikdan ko'rinib turibdiki, 5 yil davomida Xorazm viloyatidagi oliy ta'lim muassasalari soni 3 tadan 8 taga ko'paygan, ya'ni 2.7 barobar oshgan. Bu o'sish ayniqsa 2021-2023-yillarda jadal sur'atlarda kechgan. Ushbu dinamika viloyatda oliy ta'lim tizimining jadal rivojlanayotganini va ta'lim infratuzilmasining kengayayotganini ko'rsatadi.

### **XULOSA**

Mustaqillik yillarida Xorazm viloyatida oliy ta'lim tizimi sifat va miqdor jihatidan sezilarli rivojlandi. 1991-yilda viloyatda bitta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning soni 8 taga yetdi. Yangi oliy ta'lim muassasalari - Toshkent tibbiyot akademiyasi va Toshkent axborot texnologiyalari universiteti filiallari tashkil etildi. Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, zamonaviy o'quv-laboratoriya binolari, kutubxonalar, sport inshootlari barpo etildi. Professor-o'qituvchilar tarkibi ham sifat jihatidan yaxshilandi. 2020-yilga kelib, viloyatdagi oliy ta'lim muassasalarida 500 dan ortiq fan doktori va nomzodlari faoliyat yuritmoqda.

Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar soni ham sezilarli darajada kengaydi. 1991-yilda viloyatda asosan pedagogik yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlangan bo'lsa, bugungi kunda 50 dan ortiq bakalavriat yo'nalishi va 20 dan ortiq magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlanmoqda. Bu esa mintaqada yuqori malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatlarini oshirdi va mahalliy kadrlar salohiyatini yuksaltirdi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Bobojonov B.Q. Asrlarga teng yillar: Xorazm viloyati mustaqillik yillarida. - T.: Istiqlof, 2001.
2. Sadullaev A., Sotliqov A. Al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti. - Urganch, 2005.
3. Matniyozov M. Oliy ta'lim rivojlanish tarixi. - T.: Fan, 2010.
4. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimi: Tahliliy ma'lumotnoma. - T., 2020.
5. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari (1991-2020).
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008.
7. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: O'zbekiston, 2016.
8. Xorazm viloyati oliy ta'lim muassasalari faoliyati: Statistik to'plam. - Urganch, 2020.
9. Eshchanov H. Xorazm viloyatida oliy ta'lim: taraqqiyot va istiqbol. - T.: Fan, 2019.
10. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimi: Rivojlanish strategiyasi. - T., 2019.